Uchinchi yo'li. Bir o'quvchi-talaba doskaga chiqib, yechadi. Qolganlar o'zi yechishi hamda doskada masalaning yechilishini kuzatib, noto'g'ri bo'lsa, tezda o'z fikrini bildirishi lozimligi uqtiriladi. Agar doskada masala yechayotgan o'quvchi adashsa, uni to'xtatib, boshqa o'quvchini masalani yechish bo'yicha fikrini tinglab, to'g'ri yechishni ko'rsatib berishi taklif etiladi. O'quvchilarning faoliyatiga ko'ra ball beriladi.

To'rtinchi yo'l. Masala, mashq yechishni uyga vazifa qilib berish mumkin. Keyingi amaliy mashg'ulotda uning javobi muhokama qilinib, xulosa chiqariladi.

Dars jarayonida masala-mashqlarni qo'llash uchun ularni mavzular bo'yicha tuzish lozim. Masala tuzishda duch kelinadigan an'anaviy qiyinchiliklar mavjud:

Birinchidan, masalaning shartlarini turlicha izohlashga olib kelishga yo‘l qo‘yilmaydigan qilib aniq bo‘lishiga erishish oson emas. Ayniqsa, mumkin bo‘lgan variantlari bir necha xil bo‘lib, ularning ichidan nisbatan u yoki bu mezonga ko‘ra, eng optimal variantlarni topish sharti qo‘yilgan masalalarda ehtiyot bo‘lish kerak. Sababi, masalalarning sharti aniq qo‘yilmasligi natijasida o‘quvchilar masala tuzuvchi ko‘zda tutmagan masalalar yechimi, variantlarini taklif qilishi hamda u masala shartiga, umuman olganda, mos kelishi mumkin ekan. U holda o‘qituvchi qiyin ahvolda qoladi. Masalani aniq javobini to‘g‘ri deb topib, o‘quvchilarni rag‘batlantirish yoki shartni noaniqligidan foydalanib, ko‘zda tutilmagan, lekin to‘g‘ri yechish yo‘lini topgan o‘quvchiga eng yuqori ball qo‘yish lozim. Undan tashqari bir javobning o‘zini bir necha usul bilan olish mumkin. O‘qituvchi buni ham oldindan aniqlab qo‘yishi kerak, ya’ni masalani qaysi yo‘l bilan yechgan eng yuqori ball oladi.

Ikkinchidan, fanlarda yechiladigan masalalar matematik hisob-kitoblarni talab qiladi. O‘qituvchi masala tuzar ekan, o‘quvchini matematika fanlardan bilimini sinash lozimligini yoddan chiqarmasligi kerak. Shuning uchun yaxshi masala u yoki bu tushunchalarning mazmunini chuqur o‘rganishga undashi, masalani yechishi uchun zarur darajada fanga doir tushuncha bo‘lishi zarurligini taqozo qilish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxo‘jayeva N .O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi.- T. 2000

2. Alixanov S. Matematika o‘qitish metodikasi. – T:O‘qituvchi, 1993 y.

3. Algebra – 7, Algebra – 8, Algebra –9, O‘quv darsliklari. – T.O‘qituvchi-2015 yil.

# МУШУК Зуфосини (*NEPETA CATARIA* L.) ИНТРОДУКЦИОН БАХОЛАШ

**Рахматов А.А.,**
ТДАУ, таянч докторант

**Махкамов Т.Х.**
ТДАУ, б.ф.д., профессор
abdurashid.rahmatov@mail.ru

***Аннотация.*** Ушбу мақолада Мушук зуфосини (*Nepeta cataria* L.) интродукцион баҳолаш бўйича олинган натижалар келтирилган. Ушбу турнинг интродукция шароитида ўсиши ва ривожланиши, морфологик кўрсаткичлари, ҳосилдорлиги, касаллик ва зараркунандаларга чидамлилиги, интродукция шароитига яхши мослаша олганлиги бўйича жами 75 балл билан баҳоланди ва Тошкент воҳаси тупроқ-иқлим шароитида кўпайтириш мумкин бўлган истиқболли ўсимлик эканлиги аниқланди.

**Калит сўзлар.** бегона ўтлар, бир йиллик ўсимлик, интродукция, морфологик кўрсаткичлар.

Интродукцион баҳолаш интродуцентни мазкур экологик шароитда ўсиши, ривожланиши, ҳосилдориги ва чидамлилиги каби кўрсаткичларининг таққосланиши асосида амалга оширилади [7]. Интродукция натижаларини баҳолаш бир йиллик ўсимликларда [1] ва кўп йиллик ўт ўсимликларда Б.А. Головкин [4] томонидан таклиф этилган. Кейинчалик Андреев [1] томонидан ўт ўсимликлар интродукцияси натижаларининг баҳоланиши, уларнинг ҳаётий шаклига асосланиб амалга оширилди. Н.А. Базилевская [2] ўт ўсимликларининг интродукцияси ва иқлимлаштирилиши натижаларини 6 балли шкала асосида баҳолади.

Республикамиз шароитида Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Ботаника боғида И.В. Белолипов томонидан ўсимликлар интродукциясининг натижаларини баҳолаш экоинтродукцион усули асосида ўсимликларни интродукцион баҳолаш шкаласи ишлаб чиқилди [3].

Ю.М. Мурдахаев [6] доривор ўсимликларни республикамиз шароитида интродукцияси, ўсиш ва ривожланиш хусусиятларини, мослашиш жараёнини уларнинг флористик ареаллари, ҳаётий шакли ва экогеографик тарқалиш хусусиятларига боғлаб ўрганган.

Кейинчалик эса Б.Е. Тўхтаев [8] томонидан “Ўзбекистоннинг шўр ерларида доривор ўсимликларнинг интродукцияси” мавзусида амалга оширилган илмий тадқиқот ишларида шўр тупроқларда доривор

ўсимликлар интродукцияси натижаларини баҳолаш шкаласи ишлаб чиқилди ва унга асосан ўсимликларнинг интродукцион чидамлилиги, намликка, юқори ҳароратга, паст ҳароратга нисбатан ҳолати ва табиий ҳолда кўпайишига асосий эътибор қаратилди.

Тадқиқот ишимизда Мушук зуфосини (*Nepeta cataria* L.) турини интродукцион баҳолаш учун Б.Е. Тўхтаевнинг [8] 100 балли шкаласидан фойдаланилди. Шунингдек, *N. cataria L.* турини кенг масштабдаги плантацияларини ташкил этиш мақсадида асосий кўрсаткичларни ўсимликларнинг майдондаги чидамлилик хусусиятларига қаратилди (жадвалга қаранг).

Қуйидаги жадвалдан кўриниб турибдики, ўсимликнинг юқори ҳароратга муносабати юқори кўрсаткичга эга бўлиб, 15 баллни ташкил этди. Бу ҳолатни ўсимликнинг Ўзбекистонда табиий ҳолатда тарқалганлиги ва интродукция ҳудудининг тупроқ-иқлим шароитларига мослашганлиги билан изоҳлаш мумкин.

**жадвал**

***N. cataria* L. ни интродукцион баҳолаш натижалари**

| Кўрсаткичлар | Даража ва баллар | | | | | | Интродукцион баҳоси |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Юқори ҳароратга муносабати | Чидамли | 15 | Ўртача чидамли | 10 | Чидамсиз | 5 | Чидамли-15 |
| Паст ҳароратга муносабати | Чидамли | 15 | Ўртача чидамли | 10 | Чидамсиз | 5 | Чидамли-15 |
| Суғоришга бўлган талаби | Паст | 15 | Ўртача | 10 | Юқори | 5 | Ўртача-5 |
| Табиий ҳолда кўпайиши | Жадал | 25 | Ўртача | 15 | Кўпай-майди | 5 | Ўртача-15 |
| Бегона ўтларга чидамлилиги | чидамли | 15 | Ўртача | 10 | Чидамсиз | 5 | Чидамли -15 |
| Касаллик ва зараркунандалар билан зарарланиши | Зарарлан-майди | 15 | Кучсиз зарарла-нади | 10 | Кучли зарарла-нади | 5 | Кучсиз зарарланади -10 |
| **Жами** | | | | | | | **75** |

Паст ҳароратга муносабати юқори кўрсаткичга эга бўлиб, 15

баллни ташкил этди. Тадқиқот объекти кўп йиллик ҳаётий шаклга эга бўлгани сабабли совуққа нисбатан чидамлилик хусусиятини кузатиш имконияти бўлди. Қиш ойидаги паст ҳарорат шароитида илдиз бўғзида жойлашган янгиланувчи куртаклари ва илдиз тизимининг чидамлилиги сабабли паст ҳароратга муносабатини юқори чидамли хисобланди.

Ўсимлик намликка нисбатан муносабатига кўра мезофит бўлиб, табиий шароитда ярим соя ва кунгай нам жойларда ўсади. Шунинг учун суғоришга бўлган талаби ўртача кўрсаткичга эга бўлиб, 10 баллни ташкил этди. Шу сабабли ўсимликнинг плантацияларида тупроқнинг намлигини доим назоратга олиш ва намликни сақлаб қолиш тадбирларини амалга ошириш талаб этилади.

Табиий ҳолда кўпайиши хусусиятига кўра “ўртача” кўрсаткичини намоён этиб, 15 баллга эга бўлди. Табиий ва интродукция шароитларида фақат уруғлари ёрдамида кўпаяди.

Бегона ўтларга чидамлилик кўрсаткичи юқори бўлиб, “чидамли” кўрсаткичини намоён этди ва 15 балл билан баҳоланди. Ушбу тур таркибида эфир мойларини тутиши хисобига аллелопатик хусусиятни намоён этади ва бегона ўтларни сиқиб чиқариши кузатилади. Шу билан бирга кузатувларда, ресурсларга нисбатан курашда устунлик қилиши ҳам аниқланди. Ушбу аллолепатик хусусияти сабабли ўсимликни маданий плантацияларини ташкил этиш ишларида бегона ўтларга қарши кураш ишларига ортиқча харажат талаб этмаслигини билдиради.

Касаллик ва зараркунандалар билан зарарланиши кузатилмади. Аммо хорижий давлатларда касалликлари ва зараркунандалари мавжудлиги қайд этилган [5]. Шу сабабли интродукцион баҳоси ўртача 10 баллни ташкил этди, яъни келажакда кучсиз зарарланиши мумкин. Ўргимчак кана ва шира ўсимликдаги эфир мойлари ва хиди туфайли уни зарарлай олмайди. Шуни хисобига ушбу зараркунандаларга қарши кучли иммунитети мавжуд. Аммо ўсимлик плантацияларини доимий равишда суғориш сабабли замбуруғ (кулранг моғор) касалликларини пайдо бўлишига сабаб бўлиши мумкин. Намлик етишмаса, яъни ўта қуруқ ва иссиқ иқлим шароитида ўсимлик туплари ун шудринг касаллиги билан зарарланиши мумкин.

Демак, *N. cataria* L. нинг юқори ҳароратга муносабати, яъни чидамлилиги 15 баллни (чидамли), паст ҳароратга муносабати (юқори чидамли) 15 баллни, суғоришга бўлган талаби (ўртача) 10 баллни, табиий ҳолда кўпайиши (ўртача) 15 баллни, бегона ўтларга чидамлилиги (чидамли) 15 баллни, касаллик ва зараркунандалар билан зарарланиши (ўртача) 10 баллни ташкил этди.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, *N. cataria* L. интродукция шароитида ўсиши ва ривожланиши, морфологик кўрсаткичлари,

ҳосилдорлиги, касаллик ва зараркунандаларга чидамлилиги, интродукция шароитига яхши мослаша олганлиги бўйича жами 75 балл билан баҳоланди ва Тошкент воҳаси тупроқ-иқлим шароитида кўпайтириш мумкин бўлган (истиқболли) ўсимлик эканлиги аниқланди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Андреев Г.Н. Интродукция травянистых растений в Субарктику. Апатиты // Кольций. филиал им. Кирова АН СССР. - Ленинград, 1975. – 166 с.

2. Базилевская Н.А. Теории и методы интродукции растений. – Изд-во Московского университета, 1964. – 130 с.

3. Белолипов И.В. Краткие итоги первичной интродукции растений природной флоры Средней Азии в Ботаническом саду АН УзССР // Интродукция и акклиматизация растении: Сб. науч. тр. – Ташкент, 1976. Вып. 13. – С. 9-58.

4. Головкин Б.Н. Переселение травянистых многолетников на Полярный Север. – Ленинград: Наука, 1973. – 266 с.

5. Кадырбеков Р.Х. Материалы по фауне тлей (Aphidinea, Aphididae) казакстанской части Западного Тянь-Шаня // Tethys Entomological Research VI, 2002, С.65-76.

6. Мурдахаев Ю. М. Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 76 б.

7. Работягов В. Д., Митрофанова И. В., Аксёнов Ю. В. Геномная инженерия представителей рода Nepeta L. in situ и in vitro // Бюллетень Государственного Никитского ботанического сада. – 2009. – №. 98. – С. 5-8

8. Тухтаев Б.Е. Интродукция лекарственных растений на засоленных землях Узбекистана: автореф. дис. … докт. биол. наук. – Ташкент: ИГ и ЭБР АН РУз, 2009. – 38 с

# KRIMINOLOGIYA SOHASIGA TAVSIF

**Abdullayev Navro'zbek Abdunazar o'g'li**
**Tadqiqotchi**

**Annotatsiya:** Hozirgi talqindagi kriminologiya ayrim jinoyatni emas, balki ularning yig'indisi – "jinoyatchilik"ni o'rganadi. Kriminologiya uchun jinoyat - bu jinoyatchilikning individuallashtirilgan ko'rinishi bo'lib hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** kriminologiya, jinoyat, huquq, huquqbuzarlik, xulq-atvor, jazo nazariyasi

**Аннотация:** Криминология в современной интерпретации изучает не отдельные преступления, а их совокупность - «преступность». Для криминологии преступность считается индивидуализированным проявлением преступности.

**Ключевые слова:** криминология, преступность, право, правонарушение, поведение, теория наказания

**Annotation:** Criminology in the current interpretation studies not some crime, but their sum - "crime". Crime for Criminology is considered to be an individualized view of crime.

**Keywords:** criminology, crime, law, offense, behavior, punishment theory

"Kriminologiya" so'zi ikki o'zakdan iborat: srimen (lotincha) - jinoyat, jinoiy xulq-atvor, logos (yunoncha) - fan, ta'limot, bilim. Darhaqiqat, "kriminologiya" - bu jinoyat yoki jinoiy xulq-atvor haqidagi fan.

Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, kriminologiyaning vujudga kelishi 1764-yilda italiyalik huquqshunos olim Chezare Bekkariyaning "Jinoyatlar va jazolar haqida" degan kichkina, biroq sermazmun kitobi nashr etilishi bilan bog'liq. 1884-yilda Turin shahri (Shimoliy Italiya)da italyalik sudya R.Garofalo "Kriminologiya" yoki "Jinoyatchilik tabiati hamda jazo nazariyasi" nomli "Jinoyatchilik", "Jinoyatchi" va "Jazo" qismlaridan iborat bo'lgan risolasini chop etdi.

Fikrimizcha, kriminologiyaning mazkur dastlabki talqini amaliyotga mosdir, chunki "Jinoyat huquqi" fani amalda asosan jinoyat hamda jinoiy jazo tushunchalari, ularning belgilari va ro'yobga chiqarish omillarini ta'riflash bilan shug'ullanishi lozim.

Inson xulq-atvori yaxlit hodisa bo'lib, uni aynan xulq-atvor sifatida ayrim qismlarga, jumladan, ijtimoiy, biologik, psixologik, ma'naviy, fiziologik va hokazo qismlarga ajratish mumkin emas. Odamlar (bilish subyekti) xulq-atvorning u yoki bu jihatlarini mufassalroq o'rganish uchungina bunday qismlarni shartli ravishda ajratadilar. Shu bois inson xulq-atvorini anchagina

fanlar (falsafa, din, sosiologiya, tibbiyot, pedagogika, psixologiya, yurisprudensiya va h.k.) tomonidan oʻrganiladi.

Har bir muayyan jinoyat - jinoyatchilikning “elementar zarrasi”. Har qanday jinoyat inson xulq-atvorining muayyan koʻrinishidir. Psixologiyaga oid adabiyotlarda xulq-atvor deganda shaxsning erkin faolligi, ya’ni ko‘zlangan maqsad anglab yetilgan va yuz berayotgan jarayonlami nazorat qilish imkoniyati mavjud boʻlgan faollik tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, “subyekt uchun muayyan mazmun kasb etuvchi xulq-atvorni inson xulq-atvori deb tavsiflash mumkin”. Boshqacha aytganda, bu yerda shaxsning ongli, shu jumladan, yanglish, salbiy va gʻayrihuquqiy xulq-atvori toʻgʻrisida soʻz yuritilmoqda.

Har qanday fanning shakllanishiga qarab uning predmeti ham farqlanadi. Kriminologiya predmeti - har qanday va oddiy xulq-atvor emas, balki alohida xulq-atvor. Bu xulq-atvor jinoiy xususiyatga ega, shu bois u jinoiy xulq-atvor deb ataladi, ya’ni xulq-atvor, avvalo, jinoyat qonunini, uning normalarini buzish bilan bogʻlanadi.

Kriminologiya inson xulq-atvorini oʻrganuvchi boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlardan asosan shu jihati bilan farq qiladi. Ayni shu sababli jinoiy xulq-atvor jinoyat bilan bevosita bogʻliq, chunki muayyan jinoiy qilmish sodir etilganligi tufayligina xulq-atvor jinoiy deb e'tirof etiladi. Biroq hozirgi talqindagi kriminologiya ayrim jinoyatni emas, balki ularning yigʻindisi – “jinoyatchilik”ni oʻrganadi.

Kriminologiya uchun jinoyat – bu jinoyatchilikning individuallashtirilgan koʻrinishi boʻlib hisoblanadi. Shu bois jinoyatchilik jinoyatlarning oddiy yigʻindisi emas, balki ayrim jinoyatlardan farq qiladigan, yangi, yaxlit va uzviy hodisadir.

Demak, jinoyatchilik nisbatan ommaviy xususiyatga ega boʻlgan va ayni vaqtda odamlar va jamiyat manfaadariga oshiqcha ijtimoiy xavf tugʻdiradigan, shu bois amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyat deb e’tirof etilgan ijtimoiy belgilangan qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik)ning muayyan majmuidir.

Adabiyotlar:

1. Абдусаломов М., Каракетов Ю. Ответственность за вымогательство. Т.: 1997. - СП.

2. Абдухалимова М. и др. Проблемы защиты прав женщин против насилия в Наманганской области. //Ж. Женщины Центральной Азии. 2001, Спец. выпуск.

3. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. - М.. 1998.

4. Хеккаузен Х. Мотивация и деятельность. Том 1. ~ М., 1986.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИСЛОМ МОЛИЯСИ РИВОЖИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

**Юнусов Абдувохид Абдукаримович**
Агробанк АТБ Андижон вилоят бошқармаси бош бухгалтер ўринбосари

**Аннотация:** Сўнгги ўн йилликларда глобал молия бозоридаги технологик ва институционал ўзгаришлар ислом молиясига бўлган қизиқишнинг ортишига олиб келди. Ислом молияси шариат қоидаларига мос равишда, адолат, хавф ва фойдани шериклик асосида тақсимлаш, фоиздан (рибо) воз кечиш каби тамойилларга асосланади. Мазкур мақолада Ўзбекистон шароитида ислом молияси инструментларининг жорий этилиши ва унинг миллий иқтисодиётга эҳтимолий таъсирлари таҳлил қилинган. Мамлакатдаги аҳолининг катта қисми мусулмон экани, анъанавий банк хизматларидан фойдаланмаслик, ҳамда кичик ва ўрта бизнес учун адолатли молиялаштириш зарурати ислом молиясига бўлган эҳтиёжни оширмоқда. Шунингдек, халқаро тажриба асосида бу тизимнинг ривожланган давлатларда муваффақиятли қўлланилаётгани таъкидланиб, Ўзбекистон учун ҳуқуқий, таълимий ва институционал базани яратиш зарурлиги кўрсатилган. Ислом молиясини жорий этиш орқали молиявий инклюзияни ошириш, ишсизлик ва камбағалликка қарши курашиш, ҳамда иқтисодий барқарорликка эришиш имкони яратилади.

**Калит сўзлар:** ислом молияси, **Рибадан (фоиздан) воз кечиш, адолатли молиявий муносабатлар, шаффофлик, масъулият,** диний эътиқод ва эҳтиёжлар, кичик ва ўрта бизнес, ишсизликка қарши кураш, инфляцияни пасайтириш.

**Кириш.** Сўнгги ўн йилликларда жаҳон молия тизимидаги ривожланишлар катта технологик ўзгаришлар билан боғлиқ бўлди. Бозор иқтисодиёти тизимларининг тез ривожланишига молиявий ресурсларга талабларини ўрганишга йўл очади ва турли хил- банк махсулотларига, шунингдек, ислом молия инстурментларига бўлган талаб хам кенгайиб боради. Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг аксарият қисми мусулмонлар ҳисобланади. Расмий маълумотларга кўра, мамлакат аҳолисининг тахминан 96 фоизи Ислом динига эътиқод қилиб келмоқда. Ўзбекистонда ислом молиялаштиришга бўлган талабни ўрганиш долзарб ҳисобланади, чунки пул-кредит сиёсатини амалга оширишда пулга бўлган талаб функциясининг қанчалик барқарор эканлигини тушуниш муҳим: яъни, ислом молия инстурментларини ишончли восита сифатида қўллаш мумкинми-йўқми. Ривожланган мамлакатлардаги кўплаб назарий ва эмпирик тадқиқотлар мазкур

йўналишга бўлган талаб функциясининг барқарорлигини тасдиқлайди ва бу пул агрегатларини самарали сиёсат воситаси сифатида қўллашга имкон берди.

1.**Ислом молиясининг хусусиятлари ва афзалликлари**

**-Рибадан (фоиздан) воз кечиш** – молиявий операциялар реал иқтисодий фаолиятга боғланган бўлиб, хавф ва фойда шерикликда бўлинади.

**-Адолатли молиявий муносабатлар** – ислом молиясида зулм, ноқонуний фойда, тушунарсиз шартлар ман этилади. Бу аҳоли ишончини оширади.

- **Шаффофлик ва масъулият** – ҳар бир молиявий шартнома аниқ ва шаффоф бўлиши талаб қилинади, бу эса судлашишлар ва алдовларни камайтиради.

**2.Ўзбекистондаги аҳолининг диний эътиқоди ва эҳтиёжлар.** 88–96% аҳоли мусулмон экани ислом молиясига бўлган талабнинг табиий эканини кўрсатади. Кўпчилик аҳоли анъанавий фоизли банк хизматларидан норози бўлгани боис, шариатга мос молиявий хизматларга эҳтиёж ортиб бормоқда.

**3. Ислом молиясининг иқтисодий ўсишга таъсири**

- **Кичик ва ўрта бизнес** учун янги молиялаштириш имкониятлари яратилади.
- **Ишсизликка қарши кураш** — моддий ресурслар айланмаси кучайиб, янги иш ўринлари пайдо бўлади.
- **Инфляцияни пасайтириш** — пулга бўлган талабни яхшироқ тушуниш ва бошқариш имкони туғилади.

**4.Халқаро тажриба-** Лондон, АҚШ, Германия, Япония каби мамлакатлар ислом молиясини нафақат жорий этди, балки уни глобал сармоя жалб қилиш воситасига айлантирмоқда.

Мазкур жараёндан кечикмасдан, миллий хусусиятларини инобатга олган ҳолда босқичма-босқич амалга ошириши лозим. Қонунчилик базасини яратиш– ислом молияси фаолият юритиши учун махсус ҳуқуқий база ва шариат кузатув кенгашлари ташкил этилиши шарт. Мутахасислар тайёрлаш– олий таълим муассасаларида ислом молияси бўйича кадрлар тайёрловчи дастурларни кенгайтириш. Ахборот тарғибот ишлари – аҳоли орасида ислом молиясининг мазмуни, афзалликлари ва амалиётдаги имкониятларини тушунтириш керак. Пилот лойиҳаларни амалга ошириш– алоҳида ҳудудлар ёки секторларда исломий молиявий хизматларни синаб кўриш орқали тажриба тўплаш айни муддао ҳисобланади

Ўзбекистонда Ислом молияси инструментларининг қўлланилиши орқали ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ва бошқа соҳаларни ривожлантириш бўйича қуйидаги фикрларни билдириш мумкин:

1.Ҳалол ва адолатли молия тизими.Ислом молияси қарз бериш эмас, балки шериклик ва рўшноликка асосланган молиявий тизимдир. Бу тизим фоизсиз (рибага қарши) принципда ишлайди, яъни молиялаштириш фойда ва зарарни бўлишиш асосида амалга оширилади. Бу эса реал иқтисодий фаолликни рағбатлантиради, «спекулятив» фаолият ўрнига ҳақиқий ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш ёки тижорат билан шуғулланишни талаб қилади.

2.Кичик ва ўрта бизнес учун янги имкониятлар.Ислом молиявий инструментлари — масалан, мурабаха, мудариба, мушорака, ижара, такафул каби моделлар кичик бизнес учун кредитга нисбатан адолатлироқ ва самаралироқ имкониятлар яратади. Ўзбекистонда кўплаб фуқаролар фоизли кредит олишдан бош тортади, шариатга зид деб ҳисоблаб. Ислом молияси эса бу эҳтиёжни ҳалол йўл билан қондириши мумкин.

3.Янги молиявий хизматлар ва банклар ривожланиши.Ўзбекистонда сўнгги йилларда ислом молиясини жорий қилиш бўйича фаол ҳаракатлар бор. 2021–2023 йилларда ислом банкини очиш ташаббуслари, исломий суғурта (такафул) ва облигациялар (сукук) жорий этиш бўйича режалар муҳокама қилинди. Бу эса бозорда янги молиявий хизматларнинг пайдо бўлишига ва рақобатни ошишига хизмат қилади.

4.Ишсизлик ва камбағалликка қарши курашда таъсири.Мудариба (ишбилармон билан сармоядор ўртасидаги шериклик) модели орқали аҳолидаги юритилмай турган маблағлар реал иқтисодиётга йўналтирилиши мумкин. Бу эса янги иш ўринлари, ҳунармандчилик, кичик ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг ривожига олиб келади.

5.Шариатга мос молия — аҳоли ишончи ошиши.Ислом молиясининг ривожланиши шариатга амал қилувчи фуқаролар орасида молиявий муассасаларга бўлган ишончни кучайтиради. Бу молиявий инклюзияни оширади — яъни, аввал банк тизимидан четда бўлган аҳоли қатламлари ҳам иқтисодий фаолликка жалб этилади.

Хулоса: Ислом молияси Ўзбекистон иқтисодиётида янги имкониятлар эшигини очади. Бу нафақат шариат талабларига мос молиявий хизматларни яратади, балки ишлаб чиқаришни рағбатлантиради, адолатли иқтисодий муносабатларни шакллантиради ва аҳоли ўртасида молиявий ишончни оширади. Агар бу инструментлар тўғри ва тизимли

жорий этилса, мамлакат иқтисодий ўсишига сезиларли ҳисса қўшиши мумкин.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.https://president.uz/uz/lists/vievv

2.Ўзбекистон Республикаси кишлок хужалигини ривожлантиришнинг 2020 -2030 йилларга мулжалланган Стратегиясини тасдиклаш тўғрисида"гиУзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сон Фармони.

3.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуфнинг 2008 йилдаги КИФОЯ (Шарҳи Мухтасари виқоя) 3-Жуз.

4. Иқтисод фанлари номзоди - Мурылева Елена Владимировна. “Спрос на деньги: эволюция теоретических представлений и мпирические исследования” . Москва 2012.

# AGRAR SOHA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA IQTISODIY OMILLARNI AHAMIYATI.

**Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich**
Agrobank ATB Andijon viloyat boshqarmasi bosh buxgalter oʻrinbosari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada agrar soha xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy omillarni ahamiyati keng yoritib berilgan. Har bir omil alohida tahlil qilingan. Agrar sohada xavflar sanab oʻtilgan.

**Kalit soʻzlar:**oziq-ovqat xavfsizligi, omillar, barqarorlik, KES, agrar sektor, shartli-doimiy omillar

**Kirish.**Yurtimizda bugungi kunda agrar sohani isloh qilish, sohada bozor mexanizmlarini joriy etish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi.Chunki bu soha mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmogʻi va asosi boʻlib xizmar qilmoqda. Soʻnggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablagʻlarini jalb qilish va eksport faoliyatini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi.Shuningdek, oxirgi uch yilda import oʻrnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi. [1.]

**Asosiy qism.**Mutaxassislarning fikriga ko'ra, agrar sohada oziq-ovqat xavfsizligi omillari ta'minot barqarorligi, ega bo'lish imkoniyati va sifati bilan belgilanadi. Yana toʻliqroq ifoda etsak:

Birinchi omil.Barqarorlik: oziq-ovqat ta'minoti uzilmasligi uchun aholi, oila yoki alohida har doim oziq-ovqatga ega bo'la olishi lozim. Ular kutilmagan hodisalar masalan, iqtisodiy yoki iqlimiy bo'hron) yoki siklik hodisalar (masalan, iqlimiy oziq-ovqat tanqisligi) tufayli oziq-ovqatdan uzilib qolmasligi lozim.

Ikkinchi omil.Oziq-ovqat mavjudligi: zarur sifatli oziq-ovqat mahsulotlarining kerakli miqdorda ichki ishlab chiqarish yoki import orqali (shu qatori oziqaviy ko'mak) ta'minoti. Oziq-ovqat mavjudligining eng ko'p qo'llaniluvchi vositasi kaloriyalarda hisoblanuvchi jon boshiga kundalik energiya sarfidir (KES).

FAO uslublariga ko'ra KES ko'rsatkichi oziq-ovqat balansiga asoslangan oziqa iste'moli turiga binoan hisoblanadi. FAO muayyan tovarlarni oziq-ovqat ta'minotining turli manbalari (ishlab chiqarish, jamg'armalar, savdo) va mahsulotlardan turli maqsadlarda foydalanishga (yem, urug'lik, sanoatda

foydalanish, chiqitlar) oid ma'lumotlardan foydalanib, oziqovqat balanslarini hisoblaydi.

Uchinchi omil.Oziq-ovqatga ega bo'la olish: to'yimli oziqlanish uchun zarur oziqalarga ega bo'lish maqsadida zarur resurslardan foydalanish uchun moddiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar. Oziq-ovqatning moddiy ta'minoti oziq-ovqat mahsulotlari iste'molchilar talab qilgan miqdor va tanlovda bozorda mavjudligi hamda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun infratuzilma bo'lishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy imkoniyat aholining barcha ijtimoiy qatlamlari yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilishga qurbi yetishini bildiradi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy imkoniyat uy xo'jaliklar oziq-ovqat xaridi uchun yetarli daromadga egaligi va mamlakat oziq-ovqat importi uchun yetarli xorijiy valyutaga egaligini bildiradi. Oziq-ovqat xavfsizligiga agrar sektorning holati ham, mamlaatdagi ijtimoiyg'iqtisodiy vaziyat ham ta'sir ko'rsatadi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi yana bir omilni ajratib ko'rsatish mumkinki, bu savdodagi to'siqlar bo'lib, udarga eng ahamiyatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini olib kirish va chetga chiqarishni ta'qiqlash, hududlararo g'irrom raqobatni kiritish mumkin. Oziq-ovqat xavfsizligi jahon bozorining narxlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi tebranishlar, mahalliy, jumladan harbiy nizolar mavjudligi kabi omillarning ta'siriga ham uchraydi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga agrar sektorning holati ham, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat ham ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi yana bir omilni ajratib ko'rsatish mumkinki, bu savdodagi to'siqlar bo'lib, udarga eng ahamiyatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini olib kirish va chetga chiqarishni ta'qiqlash, hududlararo g'irrom raqobatni kiritish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi jahon bozorining narxlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi tebranishlar, mahalliy, jumladan harbiy nizolar mavjudligi kabi omillarning ta'siriga ham uchraydi. Oziq-ovqat xavfsizligiga jahondagi va hududdagi nobarqaror epizootik vaziyat-muayyan davrda aniq makonda qishloq xo'jalik hayvonlari yuqumli kasalliklarining tarqalishi; moddiy-texnika bazasining eskirganligi, ASM tashkilotlarining va ulgurji-oziq-ovqat infratuzilmasi tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy nobarqarorligi ham ta'sir qiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir o'tazuvchi omillarning butun xilma-xilligini majmuaviy holda, ya'ni jahon hamjamiyatining umuman davlatning va undagi viloyatlarning, ASM (qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati va boshqalar) aholining uy xo'jaliklarining omillari kesimida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash-ko'rib chiqilgan jihatlari ushbu jarayonga yuqorida keltirilgan darajalarning har birida ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.
Shunday qilib oziq-ovqat xavfsizligini ishlab chiqarish va iste'molning teng ahamiyatli ochiq quyi tizimlardan tashkil topgan tizim sifatida tasvirlash mumkin. Chunki ular bir-birisiz yuqorida aytib o'tilgan muammolarning hal qilinishini ta'minlay olmaydi. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash omillarini pirovard oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy bo'g'in bo'lmish ASM ning rivojlanishiga va aholining ushbu mahsulotlarni iste'mol qilish imkoniyatlariga ko'rsatadigan ichki va tashqi omillarga tasniflangan holda ko'rib chiqish lozim. Ichki omillar qishloq xo'jaligining, ASM ning oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatining, bevosita qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining va oziq-ovqat tovarlarini ishlab chiqaruvchilarning rivojlanish darajasiga, uy xo'jaliklariga va muayyan odamlarning hayot faoliyatiga ta'sir ko'rsatadiyu
Tashqi omillar tabiiy-iqlim sharoitining ta'sirini, mamlakatda va jahon hamjamiyatida aholiga har bir kishining hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan sifat va miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish imkoniyatini ta'minlaydigan davlat siyosatini; ekologik holat va iqlimning o'zgarishlarini; FTT ning yutuqlarini hamda o'unga bog'liq holda texnika va texnologiyalarning o'zgarishlarini; institusional o'zgarishlarni hamda alohida mamlakat qonunchiligi va xalqaro
qonunchilik bazasining o'zgarishlarini o'z ichiga oladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir quyi tizimning ichki va tashqi omillari orasida asosiy natijaviy omil mavjud, u xo'jalik yurituvchi subyektlar va insonning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha
omillarning funksiyasi hisblanmish natijaviy ko'rsatichlardan iborat. Qishloq xo'jaligi uchun natijaviy ko'rsatkich yalpi mahsulotdir, oziq-ovqat sanoati uchun ishlab chiqarish hajmi, uy xo'jaliklari uchun jon boshiga to'g'ri keladigan daromaddir. Oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar doimiy, shartli doimiy va davriy tavsifga ega bo'ladi.
Doimiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:
-muayyan hududning tabiiyg'iqlim sharoiti;
-mamlakat yoki hududlardagi agrar ishlab chiqarishning tabiiy salohiyatining
Sekin-asta susayib borishi va buning oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektlar tomondan qo'shimcha ta'sir o'tkazilmagan holda oziq-ovqat ta'minoti darajasining pasayib ketishi.
Ma'lum bir davr uchun shartli-doimiy omillarga quyidagilar misol bo'ladi:
-kambag'allik chegarasidan pastda joylashgan va zarur oziq-ovqat mahsulotlari

to'plamini sotib olish uchun yetarli miqdordagi daromadga ega bo'lmagan aholi guruhlari;
-alohida aholi guruhlari ovqatlanishining muvozanatlashmaganligi, bu ularning
salomatligiga tahdid solishi mumkin;
-muayyan omillarning ta'siri tufayli faqat bozor mexanizmidan foydalangan holda
oziq-ovqat bilan ta'minlashning imkoni bo'lmagan hududlar aholisi;
-oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish darajasining pastligi, bu holat kishilar salomatligiga tahdilarni vujudga keltirishi mumkin;
-jahon bozorlari kon'yunkturasining nobarqarorligi va importdan keladigan valyuta
tushumlari tufayli mamlakatning oziq-ovqat bilan ta'minlovchi tashqi manbalarga ahamiyatli darajada bog'lanib qolganligi.

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi davriy omilarga quyidagilar kiritiladi:
-ayrim davrlar (qurg'oqchilik, yong'in, chigirtka a boshqalar) da oziq-ovqat xavfsizligini pasayiruvchi tabiiy ofatlarning yuz berishi ehtimoli;
-mamlakatning nobarqaror tashqi iqtisodiy holati, bu embargo va boshqa sanksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa. Agrar sohada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni aholi oziq-ovqat mahsulotlarini olishidagi tegishli tahlikalarga sabab bo'luvchi tahdidlarning ta'siri bilan ham bog'lash zarur, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ko'pgina omil va muammolar ta'sir ko'rsatadiki, mamlakat, viloyat, har bir kishi va umuman jahon hamjamiyat xavfsizlikni ta'minlash uchun tahdidlarni belgilashi va kurash dasturini ishlab chiqishi lozim hamda amaliy harakatlarni bajarishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2024 yildagi PF-36-son.Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.
2.Abdug`aniyev A., Abdug`aniyev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi - (darslik)- T.: TDIU, 2004. – 304 bet.
3. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo`rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma`ruzalar matni. -T.: TIM, 2012
4. Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, -T.: MCHJ "RAM-S", - 2007. 367 b.
5. Gail L. Cramer, Clarence W. Jensen, Douglas D. Southgate, Jr. Agricultural Economics and agrobusiness. – New York, 2001. – 519 p.
6. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

# MAKTAB MATEMATIKA KURSIDA NOSTANDART MASALALARDAN FOYDALANISH

**Axmedov Sherdor Boxodirovich**
University of economics and pedagogy
NOTM katta oʻqituvchisi
**Qoʻchqarova Aziza Hasanovna**
University of economics and pedagogy
NOTM talabasi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda matematika fanini amaliyot bilan bogʻlagan holda oʻquvchilarga tushuntirish dolzarb muammoligicha qolmoqda. Boshlangich sinfda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bogʻlashda nostandart masalalarning oʻrni juda muhim. Mazkur maqolada boshlangʻich sinf matematika darslarida nostandart masalalardan foydalanish hamda oʻquvchilarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan aniq fikrlar bayon etiladi.

**Kalit soʻzlar:** nostandart masalalar, standart masalalar.

Matematikada nostandart masalalarni yechish oʻquvchilarga muammoli vaziyatni yechishda eng optimal variyantni tanlashi uchun motivatsiya beradi. Nostandart masala bilan standart masalaning farqi shundan iboratki , standart masalalarda masalaning yechimi yagona boʻladi. Nostandart masalarda esa masalaning yechimi bitta va undan koʻp boʻlishi mumkin. Nostandart masalalar bitta yoki bir nechta qoʻshimcha shartlarni kiritish bilan standart masalalarga keltiriladi. Shunda berilgan masala yagona yechimga ega boʻladi va bu yechim masalaning yechimlari ichida eng optimal yechim boʻladi. Shu optimal yechimga nostandart masalaning yechimi deyiladi.

Nostandart masalalarning turlari juda koʻp boʻlib, ular boshlangʻich sinflarda asosan arifmetik , eng sodda geometrik chizmalar va mantiqiy masalalardan iborat boʻladi. Boshlangʻich sinflarda oʻrganish mumkin boʻlgan bir qator masalalar va ularni yechish usullarini koʻrib oʻtamiz.

1-masala: a) **Standart masala**: Bahorda jamoa xoʻjaligi yerlariga hammasi boʻlib 230 tup yangi oʻrik va olma koʻchatlari ekildi. Bunda oʻrik koʻchatlari olma koʻchatlaridan 32 tup ortiq. Har qaysi koʻchatdan necha tupdan ekilgan?

b) **Nostandart masala**: Bahorda jamoa xoʻjaligi yerlariga hammasi boʻlib 230 tup yangi oʻrik va olma koʻchatlari ekildi. Bunda 32 tup oʻrik koʻchati olma koʻchatiga almashtirilganida koʻchatlar soni tenglashar edi. Nechta oʻrik va nechta olma koʻchati ekilgan?

Bir qarashda bu ikki masala mavzu jihatidan , sonli faktlari jihatidan bir xildek koʻrinadi. Ammo masalani xususiyatlarini taqqoslaganimizda

nostandart masalada ikki miqdorning yig'indisi bor-u, ayirmasi ko'rinmayapti. Ayirma masaladagi: "agar 32 ta o'rik ko'chati olma ko'chatiga almashtirilsa, ularning miqdorlari tenglashadi" degan qo'shimcha shart bazasida yashiringan bo'ladi. Yuqoridagi standart masalani yechimini o'quvchi oddiy arifmetik fikrlash yordamida osongina topa oladi.

Demak, dastavval qo'shimcha shartdan foydalanib, boshqa miqdorlar orasidagi farq qanchaligini hisoblash kerak. Shundan so'ng masala standart masalaga aylanadi. Bu ayirmani topish yo'li masalani qisqa sharti yozilgandan so'ng yaqqol ko'rinadi.

Masalaning yechimi :

**1-usul:** $32 \cdot 2 = 64$ – o'rik va olma ko'chatlari orasidagi farq.

$230 - 64 = 166$ (tup)

$166:2 = 83$ (tup) – olma ko'chati

$83 + 64 = 147$ (tup) – o'rik ko'chati.

**2-usul:** masala shartiga ko'ra 32 tup o'rik ko'chatlari olma ko'chatlariga aylantirilganida ko'chatlar soni tenglashishi aytib o'tildi. Bundan ko'rinadiki, yangi hosil bo'lgan olma ko'chatlari soni $230:2 = 115$ (tup)ga teng. Endi avvalgi ko'chatlar sonini toppish qoldi holos.

**Yechish:** $230:2 = 115$, $115 - 32 = 83$, $230 - 83 = 147$.

**Javob:** 83 tup olma ko'chatlari va 147 tup o'rik ko'chatlari ekilgan.

Demak berilgan masalada ayirmani aniqlash maqsadida amalga oshirilgan qo'shimcha amal masalani satandart ko'rinishga keltirdi.

Masalani yechishda yondoshilgan har ikki usulni o'quvchilarga tushuntiriladi. Usullardan eng qulayini tanlash o'quvchilarni o'zlariga qo'yib beriladi. Bizning fikrimizcha bunday nostandart masalalarni boshlang'ich sinflarda imkon boricha ko'proq tadbiq etish o'quvchilarni mantiqiy fikrlashlarini o'stiradi va matematik fikrlash orqali sodda amaliy masalalarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. A.A'zamov. Yosh matematik qomusiy lug'ati: oliy o'quv yurti talabalari uchun.Toshkent.Qomuslar bosh tahririyati, 1991 y. 480 bet.
Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2005 yil.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik) Toshkent. "Fan va texnologiya" 2005 yil.
3. Xikmatov A.G' . maktab matematika kursida ekstremal masalalar.-Toshkent . "O'qituvchi" 2009 yil. 3- nashr.

# KORRUPSIYA –IQTISODIY TARAQQIYOTI UCHUN XAVF

**Valiyev Muhammadjon Bahodir o'g'li**
Agrobank ATB Andijon viloyat boshqarmasi bosh yuriskonsult

**Annotatsiya**: Ushbu maqolada "korrupsiya" tushunchasining mazmun-mohiyati haqida qisqacha ta'rif berish asosida davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun xavf soluvchi illat ekanligi ko'rsatib berilgan. Korrupsiya illatining kelib chiqish tarixi, rivojlanishi, shakllari ifoda etilgan. Ushbu illatning diniy manbalarda ham qaayd etilganiga ham qisqacha asoslar keltirilgan. Yurtimiz va dunyoning ayrim davlatlarida korrupsiyaning holati va unga qarshi kurashish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar**: korrupsiya, pora, davlat, qonun, jamiyat, illat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, shaxsiy manfaat, ,siyosiy vaziyatlar.

**Kirish.** Korrupsiya - jamiyatning turli yo'llar bilar iskanjaga oladigan daxshatli illatdir. Ushbu illat davlat, jamiyat taraqqiyotiga, uning sohalari rivojiga to'siq bo'ladi, demokratiya, huquq va qonun ustuvorligiga putur yetkazadi, inson huquqlari buzulishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga taxdid soladigan uyushgan jinoyatchilik,terorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Xalqning kayfiyatiga salbiy ta'sir qiladi, adolat haqida qarashlariga va davlatga nisbatan ishonchsizlik olib keladi. Shu sababli uning asoslari, kelib chiqishini o'rganish va kurashish dolzarb masalalardan biri.

**Tadqiqot uslublari.** Ushbu maqola tahliliy tadqiqot sifatida ilmiy-nazariy manbaalar tahlilini va qonun hujjatlari asoslarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid bo'lgan ilmiy tushunchalar, yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda ushbu
sohada amalda bo'lgan holatlar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bilishning umumiy-ilmiy metodlari bo'lgan dialektik metod, tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli tahlil qilish uslublari, shuningdek, umumiy mantiqiy metodlar – induksiya, deduksiya, analiz, sintez va maxsus huquqiy metodlar qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar va huquq normalarini sharhlashda grammatik tahlil metodidan ham foydalanilgan.

**Ilmiy ishning natijasi.** "Korrupsiya" tushunchasining mazmun-mohiyati davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun xavf soluvchi illat ekanligi ko'rsatib berish asnosida, unga qarshi murosasizlik shakllanadi. Korrupsiya illatining jamiyatimiz uchun, insonlar uchun birdek kurashish zarurligi ahamiyatini tushunib yetadi.

**Asosiy qism. Shu oʻrinda korrupsiya** atamasiga qonunchilikda berilgan taʼrifni keltirib oʻtish joiz: “**korrupsiya** — shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish” [3.3-modda]

Korrupsiya - “lotincha (corrumpo-aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning oʻz mansab boʻyicha berilgan huquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiisteʼmol qilishidan iborat amaliyot, qolaversa, mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi.[4]

Korrupsiya - hozirgi kunda jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun eng katta gʻov sifatida koʻzga tashlanmaoqda. Unga qarshi kurashish zarururligini dolzarb, eng muhim vazifaga aylangan. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambagʻal bo’lishidan qatʼiy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish boʻyicha jahon hamjamiyati hamda davlatimiz tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilyotgan boʻlsada, hanuzgacha bartaraf etilmayapti.

Korrupsiya muammosi bugungi kunda ilmiy tahlil etiladigan va xavfni baholaydigan mezonlarga ega. Korrupsiyani idrok etish indeksi (CPI) – ekspertlar va biznes rahbarlarining baholashiga asoslangan holda davlat sektorida korrupsiyani qabul qilish darajasi boʻyicha mamlakatlarni baholovch va reytingga joylashtiruvchi koʻrsatkich. CPI odatda korrupsiyani „shaxsiy manfaatlar uchun ishonib topshirilgan vakolatni suiisteʼmol qilish“ deb taʼriflaydi. Indeks 1995-yildan beri har yili Transparency International nodavlat tashkiloti tomonidan chop etiladi. 2022-yil yanvar oyida chop etilgan 2021-yilgi CPI 2020-yil 1-maydan 2021-yil 30-aprelgacha boʻlgan vaqt oraligʻidagi vaziyat asosida 180 ta davlatga „100 (juda toza) dan 0 (oʻta korrupsiyalashgan) shkalasi boʻyicha“ oʻrin berib chiqqan. Daniya, Yangi Zelandiya, Finlandiya, Singapur hamda Shvetsiya dunyodagi eng kam korrupsiyaga uchragan davlatlar sifatida qabul qilinadi va xalqaro moliyaviy shaffoflik reytingida doimiy ravishda yuqori oʻrinlarda turadi, eng yuqori korrupsiyaga uchragan davlatlar esa Suriya, Somali (ikkalasi 13 ball) va Janubiy Sudandir (11 ball).[6]. Ushbu reytingda yurtimiz 32- oʻrinda (2024-yil) qayd etilgan.[6]

Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi – Oʻzbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi davlat organi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, jamiyat hayotining barcha sohalarida: iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda, oliy taʼlim tizimida, sogʻliqni saqlash tizmida, davlat xaridlari sohasida va boshqa sohalarda ham bu illatga qarshi kurash

olib borilyapti. Xalqimizda “Kasalni davolagandan koʻra uning oldini olgan afzaldir” degan naql mavjud. Jamiyatimizdagi har qanday jarayonga loqayd munosabatda boʻlmasdan barchamiz birgalikda unga qarshi kurasha olak, albatta uni yengamiz. Buning uchun avvalo aholining huquqiy ong va madaniyatini oshirish zarur.

Korrupsiyadan koʻrilayotgan zararning koʻlami cheksiz. Uning zararini buyuk alloma Mahmud Zamaxshariy oʻziga xos tarzda ifoda etgan: “Pora faqat nohaqlig-u zolimlarga yordam beruvchidir”.[5]

Din nuqtayi nazaridan ham korrupsiya qoralanadi. Islom dinida pora harom qilingan. Alloh taolo Qur’oni karimda bunday deydi: **“Bir-birlaringizning mollaringizni nohaq yemanglar. Bilaturib odamlarning mollaridan bir qismini yeyish maqsadida gunoh yoʻl bilan uni hokimlarga uzatmanglar”** (Baqara surasi, 188-oyat). Hadislarda aytadilarki, “R*asululloh sollallohu alayhi vasallam pora beruvchi, pora oluvchi va ularning oʻrtasidagi vositachini la’natladilar”* (Imom Ahmad rivoyati).

Shu o ‘rinda korrupsiya qarshi kurash usullarini ishlab chiqishdan oldin, uni tarixiy ildizlari, asoslarini, shart-sharoit, manbalarini topish zarur. Korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida ma’lumotlar ham foydali: korrupsiyaning tarixiy asoslari juda qadimga borib taqalar ekan, bu illat qabila sardorlariga sovgʻa berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Oʻsha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta toʻsiq ekanligini oshkor etib qoʻydi.

Korrupsiyaning quyidagi 4 ta asosiy sababini keltirishimiz mumkin:

1.Shaxsiy sabablar. Korrupsiya “yomon” hodisa, u yaxshi ta’lim-tarbiya koʻrmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo boʻladi.

2.Institutsional sabablar. Bunda boshqaruvning kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan, kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash ularda uzoq vaqt mansabda turishiga ishonchsizlik paydo bo’lishi kabilar korrupsiyani ragʻbatlantiruvchi omillardir.

3.Tizimiy sabablar. Hukumat ba’zan jamiyatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan boʻladi va aksar holda uzoq muddatlarga choʻziladi. Shunday holatlarda korrupsiyaga toʻgʻridan-toʻgʻri va qisqa yoʻllar ochiladi.

4.Ko’p tomonlama sabablar.Ba’zan davlat rahbariyatining o’ziga xos xulqi tufayli davlat boshqaruvida hal qiluvchilik rolini “shaxsiy” omillar bajaradi. Bunday sharoitda davlat mansablariga ishonchga sazovar odamlar tayinlangan taqdirda ham institsional va tizimga oid muammolar sabab korrupsiya koʻpayadi.

BMT ma'lumotlariga koʻra, hozir dunyoda har yili 1 trillion AQSH dollari hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion dollar mablagʻdan ayriladi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizidir. BMT Bosh kotibining bildirishicha "Korrupsiya odamlarni maktab, kasalxonalardan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga solidi, tabiiy resurslar talon-taroj boʻlishiga sabab boʻladi, boshqa turli jinoyatlar paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya jamiyatning taraqqiyotiga toʻsqinlik qiladigan va davlatni ich-ichidan yemiradigan ogʻir illatdir. U insonlarni tubanlashtirib, adolat oʻrniga manfaatni ustun qoʻyadi, natijada fuqarolarning davlatga boʻlgan ishonchi pasayadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun qonun ustuvorligi, shaffoflik va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish zarur. Faqat shu yoʻl bilangina korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish va jamiyat taraqqiyotini ta'minlash mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

1.Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent, "Oʻzbekiston", 2023 yil. -80 b.
2."Yangi Oʻzbekiston strategiyasi 2022-2026" Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni Lex.uz. 2022.
3.Oʻzbekiston Respublikasining qonuni. Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida. Toshkent sh., 2017-yil 3-yanvar, OʻRQ-419-son.34-modda.
4. https://uz.wikkipedia.org
5.https://naqshband.uz
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Korrupsiyani_idrok_etish_indeksi
7. https://innoworld.net/index.php/zifin/article/view/122
8.Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish yoʻlida ilgʻor pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. (2025). Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasi , 2(1), 16-18. https://innoworld.net/index.php/zifin/article/view/247
9.Yoshlarni umuminsoniy prinsiplar asosida tarbiyalashda Navoiy merosining oʻrni. (2025). Zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalar nazariyasi , 2(1), 1922. https://innoworld.net/index.php/zifin/article/view/249
10.Ilm fan yangiliklari konferensiyasi. -Andijon-2024, http://worldlyjournals.com/index.php/ztvdq

# RESPUBLIKAMIZDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Valiyev Muhammadjon Bahodir o‘g‘li**
Agrobank ATB Andijon viloyat boshqarmasi bosh yuriskonsult

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari hamda uning ahamiyati keng yoritib berilgan. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar ifoda etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tadbirkorlik, bozor, barqarorlik, qonun, iqtisod, soliq, mehnat

**Kirish**. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlarga keng iqtisodiy va huquqiy erkinliklar berish ham soha rivoji uchun o‘z samarasini bermoqda.

**Abstract:** This article provides a comprehensive overview of the legal framework for the development of entrepreneurship in our republic and its importance. The conditions for entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan are outlined.

**Keywords:** entrepreneurship, market, stability, law, economy, tax, labour

Аннотация: В статье дается комплексный обзор правовых основ развития предпринимательства в нашей республике и их значения. Описаны условия предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: предпринимательство, рынок, стабильность, закон, экономика, налог, труд

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida sohaga doir qonunlar chuqur o‘rganildi. Respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari ilmiy tahlil etildi.

**Asosiy qism.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari sifatida birlamchi manbaa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasiga ko‘ra, “Fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste’molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.” deyilgan [1.-25-bet]

Shunigdek, O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari bir qator normativ-huquqiy hujjatlar va qonunlar bilan belgilangan. Ular orasida quyidagilarni keltirish mumkin:

**- O‘zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni**: Ushbu qonun tadbirkorlik faoliyatining asosiy prinsiplari, shakllari, huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi.

**- O‘zbekiston Respublikasining "Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida"gi Qonuni**: Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini belgilaydi.

**-Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qonunlar**: Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, subsidiyalar va boshqa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ko‘rsatadi.

**-Soliq kodeksi**: Tadbirkorlik faoliyatini yuritishda soliq majburiyatlari va imtiyozlari haqida ma'lumot beradi.

**-Mehnat kodeksi**: Tadbirkorlik sub'ektlarining mehnat munosabatlarini tartibga solish va xodimlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

**-Investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun**: Tashqi va ichki investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan.

Ushbu huquqiy asoslar tadbirkorlik faoliyatini erkin va samarali yuritish, shuningdek, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli ham muhim bo‘lib, u tadbirkorlik muhitini yaxshilash va qo‘llab-quvvatlash uchun turli dasturlar va tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Xulosa sifatida, tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va tadbirkorlr huquqlarini homoyasi hamda tegishli islohotlarni jadallashtirish kelgusida mamlakatimiz aholisining farovonligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1.O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023 yil. -80 b.
2. O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 31.10.1990 yildagi 152-XII-son

3."Yangi O'zbekiston strategiyasi 2022-2026" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni Lex.uz. 2022.
4. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. - Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. 791 bet.
5.Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. Toshkent. "Yuridik adabiyotlar publish" 2021.-400 bet.
6. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo`rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma`ruzalar matni. -T.: TIM, 2012
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

# LIFESTYLE AND EMOTIONAL FACTORS IN CHILDREN WITH DELAYED DEVELOPMENT: A REGIONAL ASSESSMENT

**Kabilova Dilbar Komilovna**
**Kurbanova Gulnora Nozimjonovna**
Department of Pediatrics, Central Asian Medical University, Fergana Uzbekistan
gulnora.qurbanova1312@gmail.com

**Abstract:** The increasing rate of developmental delays in children has highlighted the need for research that goes beyond biological causes, placing greater emphasis on lifestyle and emotional well-being. In early childhood, the family environment, daily routines, and emotional support systems are essential to shaping cognitive and social development. Understanding these factors is especially important in regions with limited access to pediatric mental health services.

**Keywords:** lifestyle, emotional development, developmental delay, early childhood, parental influence

**Aim of the Study:** This study aims to examine how lifestyle patterns and emotional environments affect developmental delays in children. Conducted at the Fergana Regional Children's Multidisciplinary Medical Center, it explores associations between daily living conditions, emotional changes in children, and the rate of developmental delays.

**Materials and Methods:** The study involved 68 children (aged 2–7 years) who were diagnosed with developmental delays from January 2022 to January 2025. Data were collected through structured parental questionnaires on daily routines (diet, sleep, screen time), emotional behavior checklists, and developmental screenings (e.g., ASQ, DDST). Clinical observations and interviews with caregivers provided insights into parenting styles and home environment. Chi-square and multivariate regression analyses were used to identify risk factors (significance set at $p<0.05$).

**Results and Discussion:** Of the 68 children, 60.7% were male. A disrupted lifestyle—characterized by irregular sleeping patterns, low physical activity, and prolonged screen exposure—was significantly associated with delayed development ($p=0.014$). Emotional changes, such as increased irritability and reduced social interaction, were found in 68% of children. Lack of structured family routines and limited parental interaction were major contributors. Children who received consistent emotional support and structured activities (reading, play therapy, outdoor time) demonstrated better developmental progress within 6 months of intervention ($p<0.001$).

**Conclusion:** This study underscores the importance of lifestyle structure and emotional stability in managing developmental delays. Emotional responsiveness and daily routines are modifiable risk factors that can significantly influence a child's developmental outcome, especially when medical services are limited. Recommendations:

1. Train primary care providers to assess lifestyle and emotional health during routine child check-ups.
2. Introduce public health programs aimed at educating families on the impact of lifestyle on child development.
3. Develop region-specific guidelines to include emotional and lifestyle assessments in early developmental screening.

**References:**


1. Abdurakhmonov, N., & Eminov, R. (2024). IMPLANTABLE COLLAMER LENS: STEP AHEAD IN REFRACTIVE SURGERY?. *Science and innovation*, *3*(D10), 110-113.
2. ASSESSMENT OF COMPLICATIONS POST-HEMORRHOIDECTOMY. (2025). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, *2*(1), 38-40. https://eoconf.com/index.php/icset/article/view/50
3. EXPLORING METHODS TO IMPROVE THE TREATMENT OF COMPLICATIONS ARISING FROM ENDOUROLOGICAL OPERATIONS FOR URINARY STONE DISEASE (LITERATURE REVIEW). (2025). *ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES*, *2*(3), 21-25. https://innoworld.net/index.php/ojmns/article/view/309
4. Fattaxov, N. X., Abdulxakimov, A. R., Xomidchonova Sh, X., & Xaidarov, G. N. (2025). EFFECTIVENESS OF SURGICAL PREVENTION OF POSTOPERATIVE PURULENT COMPLICATIONS IN CHILDREN. *Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing*, *3*(1), 191-193.
5. Fattaxov, N. X., Abdulxakimov, A. R., Xomidchonova Sh, X., & Xaidarov, G. N. (2025). SURGICAL PREVENTION OF PURULENT INGROWN TOENAIL IN CHILDREN. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, *3*(1), 125-127.
6. Fattaxov, N. X., Abdulxakimov, A. R., Xomidchonova, S. X., & Xaidarov, G. N. (2025). INNOVATIONS IN POSTOPERATIVE CARE: THE USE OF DRAINS AND ANTISEPTICS TO PREVENT PURULENT INFECTIONS. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, *4*(1), 90-91.
7. Gulomov, K. K., Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Kholikov, B. M., & Meliboev, R. A. (2025, February). IMPROVING THE TREATMENT OF COMPLICATIONS IN ENDOUROLOGICAL OPERATIONS FOR

UROLITHIASIS. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY* (Vol. 2, No. 1, pp. 31-33).

8. Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Meliboev, R. A., & Yokubov, D. Y. (2025). NEW TREATMENT APPROACHES FOR PEDIATRIC UPPER GASTROINTESTINAL OBSTRUCTION IN FERGANA VALLEY. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, *2*(2), 4-6.
9. Kh, A. N. (2025). OPTIMIZING PROPHYLACTIC STRATEGIES FOR POST-LASIK DRY EYE SYNDROME: A COMPREHENSIVE REVIEW. *ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES*, *2*(3), 4-8.
10. Khakimboy Ugli, B. O., Ismaeel, G. L., Hameed, S. M., Al-Hussainy, A. F., Abd, B., Hamza, H. H., ... & Rano Khazratkulovna, K. (2025). Recent Updates on Chemotherapy of Pt Complexes and Pt Nano-Composites for Breast Cancer Therapy: A Mini-Review. *Journal of Nanostructures*, *15*(1), 190-199.
11. Melikuzievich, K. G. (2025). PREVENTING PURULENT COMPLICATIONS IN PEDIATRIC OSTEOMYELITIS (LITERATURE REVIEW). *ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES*, *2*(1), 33-40.
12. Rustamovich, A. B., & Arshad, M. S. (2024). PATHOLOGICAL CONDITION AND ANALYSIS OF THE JUXTAGLOMERULAR CELL OF THE EXCRETORY SYSTEM. *AMERICAN JOURNAL OF APPLIED MEDICAL SCIENCE*, *2*(3), 58-66.
13. Rustamovich, T. F. (2024). FLAT FEET-SYMPTOMS, DEGREES, PREVENTION AND TREATMENT METHODS. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, *1*(4), 312-317.
14. Rustamovich, T. F. (2024). TYPES OF BLEEDING, METHODS TO STOP BLEEDING, THE IMPORTANCE OF PROVIDING FIRST AID IN CASE OF BLEEDING. *JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS*, *1*(2), 163-167.
15. Rustamovich, T. F. (2025). PREVALENCE OF ARTERIAL HYPERTENSION AMONG ELDERLY COVID-19 PATIENTS AND ITS IMPACT ON CARDIOVASCULAR OUTCOMES. *ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES*, *2*(3), 12-16.
16. Shohrukhbek, K., & Ibrokhim, T. (2025). ASSESSMENT OF MORPHOLOGICAL CHANGES AFTER HEMORRHOIDECTOMY. ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR, 2(2), 7-9.
17. Кузибоев, Ш. (2025). АНАЛИЗ ОСЛОЖНЕНИЙ ПОСЛЕ ГЕМОРРОИДЭКТОМИИ: КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ. *Экономика и социум*, (1-2 (128)), 697-701.

# TA'LIM JARAYONIDA TESTDAN FOYDALANISH

**Toshtonova Muxlisa**
University of Economics and Pedogogy
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi
assistent-o'qituvchi
toshtonovam@gmail.com

**Ahmedova Izora**
University of Economics and Pedogogy
Boshlang'ich talim yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda universitetlarda kompyuter testlaridan tobora ko'proq foydalanmoqda. Elektron testlar zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotning tarkibiy qismlaridan biridir. Tizimda kompyuter testlarini tashkil qilish va o'tkazish uchun qulaydir. Kompyuter testlarida bepul va ochiq ta'limni boshqarish tizimi bo'lib, birinchi navbatda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan. Bunday holda, testga qat'iy savollarni kiritish mumkin va ular barcha talabalar uchun bir xil bo'ladi, ular orasidan savollar tasodifiy tanlanadi.

**Kalit so'zlar:** test, kompyuter testi, oliy ta'lim, masofaviy ta'lim, material hajm, test jarayoniga qo'yiladigan talablar, testlarni ishlab chiqish, to'g'ri va noto'g'rilarini rangi bo'yicha ajratish.

**Annotation.** In recent years, universities are increasingly using computer tests. Electronic tests are one of the components of modern educational and methodological support. It is convenient to organize and conduct computer tests on the system. Computer Tests is a free and open learning management system, primarily aimed at organizing interactions between teachers and students. In this case, fixed questions can be included in the test and they will be the same for all students, among which questions will be randomly selected.

**Keywords:** test`s, computer test, higher education, distance education, material volume, requirements for the test process, development of tests, correct and incorrect classification by color .

**Аннотатсия.** В последние годы университеты все чаще используют компьютерные тесты. Электронные тесты являются одной из составляющих современного учебно-методического обеспечения. Удобно организовывать и проводить компьютерные испытания системы. Компьютерные тесты – это бесплатная и открытая система управления обучением, направленная в первую очередь на организацию взаимодействия между преподавателями и учениками. В этом случае в

тест могут быть включены фиксированные вопросы, они будут одинаковыми для всех учащихся, среди которых вопросы будут выбираться случайным образом. Ключевые слова: тест, компьютерный тест, высшее образование, дистанционное образование, объем материала, требования к процессу тестирования, разработка тестов, правильная и неправильная классификация по цветую

O'qituvchiga testni tugatgandan so'ng talabalar natijalarini ko'rishlari uchun bir nechta variantlarni to'g'rilash imkoniyati beriladi. Misol uchun, testni o'rnatish usullaridan biri bitta urinish testi bo'lishi mumkin, shundan so'ng talaba yakuniy baho oladi. Agar ballga qo'shimcha ravishda talabaga barcha javob variantlari ko'rsatilsa, to'g'ri va noto'g'rilarini rangi bo'yicha ajratilsa, u qayerda xato qilgani, nima uchun xato qilgani va nima uchun bu aniqligi haqida o'ylash imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'ylaydi va tahlil qiladi - u o'rganadi. Talabaga test jarayonini o'ylash, tahlil qilish va xatolarni tuzatish imkoniyatini berish uchun testni o'rnatishning boshqa usulidan foydalanishingiz mumkin. Buning uchun barcha javob variantlarining to'g'ri yoki noto'g'riligini ko'rsata olmaysiz, faqat talabaning javobini va unga berilgan ballarni ko'rsatish mumkin.

Testlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda o'qituvchi ularning shakli, tuzilishi va mazmuniga, shuningdek test jarayoniga qo'yiladigan talablarga rioya qilishga intilishi kerak, shunda olingan natijalar o'z aksini topadi. Ushbu afzalliklar tufayli oliy ta'limda testlardan talabalar malakasining boshlang'ich darajasini aniqlash, o'quv fanining ayrim mavzulari yoki bo'limlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish sifatini tekshirish va samarali tashkil etish uchun juda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

**Kirish.** Test individual farqlarni o'rganish usuli sifatida yaqinda paydo bo'ldi. U XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida psixologlar tomonidan insonning jismoniy, fiziologik va ruhiy xususiyatlarini aniqlash uchun kiritilgan. "Test" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "test", "tekshirish" degan ma'noni anglatadi [1]. Ingliz olimi Frensis Galton test nazariyasini rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilab berdi: bir xil testlar seriyasini ko'p sonli mavzularga qo'llash; natijalarni statistik qayta ishlash; baholash standartlarini aniqlash. 1917-yilgacha sinov masalalariga yetarlicha e'tibor berilmagan. Sinovlar 1925-yildan keyin maxsus sinov komissiyasi tuzilgandan keyin amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Sinov komissiyasi Maktab mehnat metodikasi institutining pedagogika bo'limida mavjud edi. 1926-yilning bahorida Amerika sinovlari asosida yaratilgan bunday sinovlar chiqarildi. Ushbu testlar talabaning muvaffaqiyatini qayd etish uchun ko'rsatmalar va shaxsiy kartasi bo'lgan. Taniqli psixologlar va o'qituvchilar testlarni ishlab chiqish muammosida yaqindan qatnashdilar: S. G. Gellershteyn, P.P. Blonskiy,

A.P. Boltunov, M.S.Bernshteyn, A. M. Shubert. P.P. Blonskiyning so'zlariga ko'ra, testlarning katta afzalligi shundaki, ular talabaning odatiy javobini "Menga shunday tuyuladi" "men buni bilaman" yoki "men buni bilmayman" so'zlari bilan almashtirishga imkon beradi. 1927-yilda S. M. Vasilevskiyning "Psixologik va psixotexnika tadqiqotlari nazariyasi va texnologiyasiga kirish" kitobi nashr etildi, unda testlarni yaratish va ulardan foydalanishning nazariy va amaliy yondashuvlari ko'rsatilgan. Bu anketalar va testlarni tuzish metodikasi, natijalarni qayta ishlashning statistik usullari, turli kasblarni o'rganish usullari, tajribalar o'tkazish masalalarini o'zida aks ettirgan birinchi darslik edi. Ayni paytda test sinovi zamonaviy oliy o‘quv yurtlari amaliyotiga keng joriy etilmoqda. O'quv jarayonini tashkil etish, bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va ularni shakllantirish uchun test shakllaridan foydalanish imkoniyatlari, test topshiriqlarini tuzish tamoyillari, testning afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqilgan. "Test" atamasi odatda bilimlarni o'zlashtirish darajasi, rivojlanish darajasi haqida ma'lumot olishga mo'ljallangan, vaqt chegarasi bo'lgan qisqa savollar va topshiriqlar tizimini anglatadi. Ta'lim jarayonida test o'zaro bog'liq uchta funksiyani bajaradi: diagnostika, ta'lim va tarbiya. Diagnostik funksiya testning asosiy vazifasidir. Bu bilim, ko'nikma va o'rganish odatlarining darajasini ochib beradi. O‘qitish vazifasi o‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirishda faolroq bo‘lishga undashdan iborat. Ta’lim vazifasi shundan iboratki, test muqarrar va davriy nazorat usuli hisoblanadi. Bu talabalarni tarbiyalaydi. Ta'lim jarayonida funksiyalarning o'zi turli darajada va turli kombinatsiyalarda namoyon bo'lib, ta'lim jarayonini samaraliroq qiladi. [2]. Universitet professor- o'qituvchilari, psixologlar va talabalar o'rtasida testlarning afzalliklari va kamchiliklari haqida qizg'in bahs-munozaralar olib borilgan. Shuning uchun o’qitishda testdan foydalanish eng mos keladigan sohani topish uchun testning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir [3, 94-b.]. Boshqacha aytganda, test ma’lum o’quv materiali asosida tuziladi, bilimlarni nazorat qilish maqsadiga qaratiladi, faoliyatda bilimlarni tekshirish vazifasini bajaradi. Testning afzalliklari quyidagilardan iborat: qisqa vaqt ichida bir darsda kattaroq (boshqa nazorat shakllariga nisbatan) material hajmini tekshirish imkonini beradi; barcha o‘quvchilarni teng sharoitga qo‘yadi (ular bir vaqtning o‘zida hajmi va mazmuni teng bo‘lganmaterial bilan ishlaydilar); talaba javobini baholashda omad yoki omadsizlik, imtihon yoki test ishtirokchilarining kommunikativ xulq-atvori kabi omillar ta ‘sirini istisno qiladi; o‘qituvchiga o‘qitishning har qanday bosqichida o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini tez nazorat qilish imkonini beradi; bilimlarni o‘zlashtirish sifatini baholashda subyektivlikni istisno qiladi; o‘quvchining imtihon oluvchi bilan bevosita aloqada bo‘lganda muqarrar ravishda yuzaga keladigan zo‘riqish, hayajonini ma’lum darajada yengillashtiradi; o‘quvchi, garchi u o‘quv fanidan kam

ma'lumotga ega bo'lsa ham, nutqi kam bo'lgandan yuqori baho olganida, talabaning nutqiy xulq-atvori kabi omillarning baholanishiga ta'sir qilishni istisno qiladi; qo'yilgan baho imtihonchining oldingi javobidan olgan taassurotiga bog'liq bo'lsa, kontras effektini pasaytiradi; fanning deyarli barcha asosiy konseptual masalalari bo'yicha talaba bilimini sinab ko'rish imkonini beradi. So'nggi yillarda universitetlarda kompyuter testlaridan tobora ko'proq foydalanilmoqda. Elektron testlar zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotning tarkibiy qismlaridan biridir. Tizimda kompyuter testlarini tashkil qilish va o'tkazish uchun qulaydir. Ushbu tizim bepul va ochiq ta'limni boshqarish tizimi bo'lib, birinchi navbatda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan. Bunday holda, siz testga qat'iy savollarni kiritishingiz mumkin va ular barcha talabalar uchun bir xil bo'ladi, ular orasidan savollar tasodifiy tanlanadi. Savol variantlari ko'p bo'lsa, ehtimol har bir talaba uchun individual test yaratiladi. "Test" elementi uchun siz quyidagi xususiyatlarni belgilashingiz mumkin: testning boshlanishi va oxiri; testdan o'tishga urinishlar soni; baholash usuli (bir nechta urinishlar bo'lsa); baholash toifasi; savollar tartibi va boshqalar. O'qituvchiga testni tugatgandan so'ng talabalar natijalarini ko'rishlari uchun bir nechta variantlarni sozlash imkoniyati beriladi. Misol uchun, testni o'rnatish usullaridan biri bitta urinish testi bo'lishi mumkin, shundan so'ng talaba yakuniy baho oladi. Agar siz ballga qo'shimcha ravishda siz talabaga barcha javob variantlarini ko'rsatsangiz, to'g'ri va noto'g'rilarini rangi bo'yicha ajratsangiz, u qaerda xato qilgani, nima uchun xato qilgani va nima uchun bu aniqligi haqida o'ylash imkoniyatiga ega bo'ladi. U o'ylaydi va tahlil qiladi - u o'rganadi. Talabaga test jarayonini o'ylash va tahlil qilish va xatolarni tuzatish imkoniyatini berish uchun siz testni o'rnatishning boshqa usulidan foydalanishingiz mumkin. Buning uchun siz barcha javob variantlarining to'g'ri/noto'g'riligini ko'rsata olmaysiz, faqat talabaning javobini va unga berilgan ballarni ko'rsating. Shu bilan birga, savollarning o'zini ham, javob variantlarini ham aralashtirib, bir necha marta testdan o'tish imkoniyatini bering. Har bir test urinishi avtomatik tarzda baholanadi. Masofaviy ta'lim tizimida savollar, testlar va ish tavsifi bankini yaratish eng batafsil keltirilgan[2]. Elektron muhitida testlarni ishlab chiqish va fanni o'rganishda ulardan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, testlar fanning moduli yoki bo'limi uchun kirish va joriy nazorat muammolarini hal qilishi mumkin; bu yakuniy nazoratga tayyorgarlik ko'rish uchun simulyator testlari bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, test o'quvchilarning o'quv materialini qanday qabul qilishlari va o'zlashtirishlari haqida ma'lumot olish, shuningdek, o'quv jarayonida nazorat funksiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Testning kamchiliklari sifatida quyidagilar qayd etilgan: tasodifiy tanlash imkoniyati (tasodifiy degani tasodifiy tanlangan yoki taxmin qilingan javobni ham,

masalan, shoshqaloqlik yoki e'tiborsizlik tufayli noto'g'ri yozilgan javobni anglatadi); o‘quvchilarning aqliy va ijodiy faoliyatini baholashda test texnologiyalarining cheklanishi; test savollarini ishlab chiqishning murakkabligi. Ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunga qadar test muammosi bo'yicha ko'plab asarlar nashr etilgan bo'lib, ularda ushbu kamchiliklarni bartaraf etishning turli xil yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Bu uzoq va ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, test bir marta va butunlay yaratiladi degan fikr chuqur xatodir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, fanni o'rganishda testlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda o'qituvchi ularning shakli, tuzilishi va mazmuniga, shuningdek, test jarayoniga qo'yiladigan talablarga rioya qilishga intilishi kerak, shunda olingan natijalar o'z aksini topadi. Sinovlarning yomon tayyorlanishi ulardan foydalanish g'oyasini obro'sizlantirishi mumkin. Ushbu afzalliklar tufayli oliy ta'limda testlardan talabalar malakasining boshlang'ich darajasini diagnostika qilish va keyingi ta'lim strategiyalarini aniqlash, o'quv fanining ayrim mavzulari yoki bo'limlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish sifatini tekshirish va samarali tashkil etish uchun juda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Википедия. Тест [Электронный курс] – Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki/Тест.
2. Википедия. Педагогическое тестирование [Электронный курс] – Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/wiki/Педагогическое тестирование.
3. Kosuxin V. Universitet faoliyatida testning o'rni va roli /V. Kosuxin, G. Loginova, I. Loginova // Rossiya oliy ta'lim. 2008 yil. 1-son. 94-97betlar.
4. Avanesov V.S. Test topshiriqlarining tarkibi. Universitet o'qituvchilari, maktab o'qituvchilari, aspirantlar va pedagogika universitetlari talabalari uchun o'quv kitobi / V.S. Avanesov. – M.: Adept, 1998. – 71 b.
5. Bespalko V.P. Pedagogik va progressiv o'qitish texnologiyalari. Pedagogika universitetlari talabalari uchun darslik / V.P. Barmoqsiz. – M., 1995.

# MODULLI O‘QITISH TIZIMIDA TALABALAR NUTQIY QOBILIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi**
Andijon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Til muayyan jamoa muloqot vositasi bo`lib, jamiyatda tafakkur rivojiga , ilm-fan, madaniy-tarixiy an`analarning avloddan-avlodga yetkazilib berishiga, ilm-fanning asosiy taraqqitoyiga va shu bilan bir qatorga kommunikativ aloqa vositasi asosi hisoblanadi. Ushbuda aynan nutq qobilyati va uni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar**: Nutqiy kompetensiya, baholash, rivojlantirish, tizimli yondashuv, individual yondashuv, tezkor javob.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlanishi va taraqqiy etishi, zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat, madaniyatlarning o‘zaro yaqinlashishi, mamlakatimizning xalqaro maydonga chiqishi uchun barcha kerakli shart-sharoitlar mavjudligini taqazo etadi. Ayniqsa, har bir davlatning dunyo hamjamiyatidagi o‘rni, nufuzi, mavqei, o‘z navbatida, aholisining yashash darajasi bilan belgilanadi. Bu esa, har bir shaxsni har tomonlama taraqqiy etishi zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Qachonki, ma’lum bir kasb egalari o‘zlarini kasblarini seva olishsa, undan bahra ola bilishsagina shu soha rivojlanadi va taraqqiy etadi. Ko‘p jihatdan so‘nggi yillarda globallashuv jarayonlarining turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot jarayoniga ta’sirining eng yorqin ifodasi sifatida o‘z aksini topmoqda. Hozirgi kunda jamiyat va davlat yoshlarni ilmiy va umumiy madaniy tayyorgarlik darajasiga, shuningdek, turli tillarda va manbalarda taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish ko‘nikmalariga, shuningdek, global miqyosda turli davlatlarga sayohat qilish malakalariga juda katta talablar qo‘yishga intilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy olamda o‘z o‘rniga ega bo‘lishda, o‘zini namoyon qilishda, vatandoshlar va boshqa madaniyat vakillari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot strategiyasini topishda kommunikativ kompetentlik asosiy omil sifatida gavdalanadi. Bu o‘z navbatida, modulli o‘qitish jarayonida talabalarda nutqiy qobilyatni shakllantirishni, shuningdek, kasbiy jihatdan muloqot qilish qobiliyati va tayyorgarligini tarkib toptirishga e’tibor qaratish zarurligini anglatadi.

Pedagogika ta’lim yo‘nalish talabalariga modulli o‘qitish jarayonida nutqiy qobilyatni rivojlantirish muammosini tahlil qilishda “qobilyat”, “muloqot”, “nutqiy qobilyat”, “rivojlantirish” kabi tushunchalarning mazmunini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq. Dastavval, biz nutqiy qobilyat tushunchasini ko‘rib chiqishimiz lozim. Bugungi kunga kelib ushbu

tushunchani koʻrib chiqishda koʻplab yondashuvlar mavjud. Tadqiqotlarimiz shuni koʻrsatadiki, mazkur konsepsiyaga nisbatan berilgan koʻplab ta'riflarni koʻrib chiqamiz. Jumladan, N.Xomskiy til nazariyasi tizimida birinchilardan boʻlib, 1965-yilda oʻzining "Sintaksis nazariyasining jihatlari" asarida "nutqiy qobilyat" tushunchasidan foydalangan. Olimning fikriga koʻra, lingvistik kompetensiya "soʻzlovchining – tinglovchining oʻz tilini bilishi"dan boshqa narsa emas va bu bilimlar tilning kundalik hayotda haqiqiy qoʻllanilishiga qarama-qarshi qoʻyiladi[1].

Demak, nutqiy qobilyat oʻziga xos oʻzaro fikr almashish jarayoni sifatida qabul qilinishi mumkin, buning natijasida oʻzaro yordam koʻrsatish va murakkablikning turli darajalaridagi harakatlar muvofiqligi ta'minlanadi. Shuningdek, qobilyatni muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin. E.N.Zaretskayaning fikricha, nutqiy faoliyat ma'lum tartibda amalga oshiriluvchi izchil harakatlar tizimi boʻlib, ularning har biri xususiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va muomala maqsadi tomon qoʻyilgan oʻziga xos "qadam" sifatida koʻrib chiqilishi mumkin"[2].

Taniqli tadqiqotchilardan biri A.N.Leontevning konsepsiyasiga tayanib, "nutqiy faoliyat"[3]ning aniq strukturaviy komponentlardan iborat ekanini koʻrish mumkin. Britaniya maktablarida oltita tayanch kompetensiyalar asos sifatida olingan. Ularni shartli ravishda bir nechta guruhlarga birlashtirish mumkin.

**Asosiy qobilyatlar:**

- ✓ muloqotga kirishish;
- ✓ hisob-kitoblar yuritish;
- ✓ axborot savodxonligi.

**Keng koʻlamli tayanch qobilyatlar:**

- ✓ boshqalar bilan ishlay olish;
- ✓ oʻqish va takomillashish malakasi; t
- ✓ urli masala va muammolarni yechish koʻnikmasidir.

Shu bilan birga, fanda sinonimik ma'noda qoʻllanadigan "nutqiy qobilyat" va "nutqiy muloqot" tushunchalarini oʻzaro farqlash lozim. Ushbu tushunchalar oʻzbek pedagogik maktabi uchun yangilik emas, biroq shunga qaramay, ularni turlicha tushunish kerakligiga e'tibor qaratish kerak. "nutqiy qobilyat" va "nutqiy muloqot" tushunchalarini farqlashda A.V.Xutorskiyning fikri diqqatga sazovor[4].

Shuningdek, L.Xell va D.Zigler nutqiy qobilyatga "psixosotsiologik sifat boʻlib, kuch va ishonchni bildiruvchi, oʻz ishining muvaffaqiyatli va foydali

[1] http://www.fayllar.org/komunikativ-kompetentlik-reja-ozbekiston-respublikasidagi-zamo.html]\
[2] https://www.ilmiyanjumanlar.uz/uploads/journal/20240426_CO26_1.pdf
[3] A.N. Leont'ev [Leontiev] and A.V. Zaporozhets, The Restoration of Movements [Vosstanovlenie dvizhenii] (Moscow, 1945).
[4] Хуторский А. В. Ключевые компетенции: технология конструирования / / Народное образование. - 2003. - Ns 5.

ekanligidan kelib chiqqan tuygʻu boʻlib, insonga uning atrofidagilari bilan shaxs muloqot qilayotgan sheriklarining oʻz fikri, dunyoqarashi, gʻoyalarini toʻla-toʻkis ifodalashga psixologik sharoitlar yaratish, vositalarning boy, turli-tuman munosabatni tashkillash, adekvatlikning barcha perseptiv, kommunikativ, interfaol qirralarini egallashga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak”[5]. Shuningdek, har qanday soha mutaxassisi faoliyatining eng muhim jihatlaridan biri boʻlgan maʼnaviy-axloqiy, kasbiy qobilyat tamoyiliga ham rioya qilishi kerak. Boʻlajak oʻqituvchining nutqiy qobilyati bir qator oʻziga xos tarkibiy qismlardan iborat boʻlib, ular orasida samarali va foydali faoliyatni taʼminlashda kasbiy mahorat alohida oʻrin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Khaitova, I. I., & Olimov, S. S. (2020). The Main Problems Of Studying Electronic Information And Educational Environment Of The High School: Experience Of Analysis Of Scientific Literature. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(12), 127-131.
2. Avliyoqulov N.X. Oʻqitishning Modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2001, – 7 b.
3. Rashidov X., Xabib X. va boshqalar. Kasbiy pedagogika. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. – T., 2007, – 23 b.
4. Raximov B.X., Mavlyanov A., Choriyev V. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar sxemalarda. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Fan va texnologiyalar. 2009, – 83b.
5. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: Taʼlim markazi, 1999, – 43 b.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot).–T.: Moliya. 2003, – 76 b.
7. Tolipov Oʻ., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Fan. OʻzPFITI, 2006, – 81 b.

[5] Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности. — СПб.: Питер, 2008. – С. 209.

MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ


| | | |
|---|---|---|
| 1. | NEW TREATMENT APPROACHES FOR PEDIATRIC UPPER GASTROINTESTINAL OBSTRUCTION IN FERGANA VALLEY<br>Juraev S.B., Khamdamov R.A.,<br>Meliboev R.A., Yokubov D.Y. | 3 |
| 2. | NEUROLOGICAL ASSESSMENT OF POSTOPERATIVE PATIENTS UNDERGOING CORONARY ARTERY BYPASS GRAFTING (CABG)<br>Gulomov K.K., Kholikov B.M.,<br>Pirmatov Sh.Sh., Yokubov D.Y. | 7 |
| 3. | ABDULLA QODIRIYNING "MEHROBDAN CHAYON" ROMANIDA PORTRET JANRI UNSURLARI TAHLILI<br>Berdiyeva Malika Abdukaxxorovna | 11 |
| 4. | TALABALARDA ILMIY MATNLAR ASOSIDA MUSTAQIL FIKRLASH VA TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHI<br>Ho'jamberdiyeva Fotima Ne'matovna | 14 |
| 5. | Parametrli kvadrat tenglamalar<br>X. L. Gaipova<br>A.G. Abdullayev | 17 |
| 6. | T.A. BARRONNING "THE MIRROR OF MERLIN" ASARINING MIFOPOETIK XUSUSIYATLARI<br>Turayeva Xurshida Toxirovna | 21 |
| 7. | AMALIY DARSLARDA MASALA, MASHQLARDAN FOYDALANISH VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING BA'ZI USULLARI<br>M.M.Abdumannopov | 23 |
| 8. | МУШУК Зуфосини *(NEPETA CATARIA* L.) ИНТРОДУКЦИОН БАХОЛАШ<br>Рахматов А.А.,<br>Махкамов Т.Х. | 26 |
| 9. | KRIMINOLOGIYA SOHASIGA TAVSIF<br>Abdullayev Navro'zbek Abdunazar o'g'li | 32 |
| 10. | ЎЗБЕКИСТОНДА ИСЛОМ МОЛИЯСИ РИВОЖИНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ<br>Юнусов Абдувохид Абдукаримович | 36 |
| 11. | AGRAR SOHA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA IQTISODIY OMILLARNI AHAMIYATI. | 42 |

| | | |
|---|---|---|
| | Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich | |
| 12. | MAKTAB MATEMATIKA KURSIDA NOSTANDART MASALALARDAN FOYDALANISH<br>Axmedov Sherdor Boxodirovich<br>Qo'chqarova Aziza Hasanovna | 40 |
| 13. | KORRUPSIYA –IQTISODIY TARAQQIYOTI UCHUN XAVF<br>Valiyev Muhammadjon Bahodir o'g'li | 46 |
| 14. | LIFESTYLE AND EMOTIONAL FACTORS IN CHILDREN WITH DELAYED DEVELOPMENT: A REGIONAL ASSESSMENT<br>Kabilova Dilbar Komilovna<br>Kurbanova Gulnora Nozimjonovna | 49 |
| 15. | TA'LIM JARAYONIDA TESTDAN FOYDALANISH<br>Toshtonova Muxlisa<br>Ahmedova Izora | 52 |
| 16. | MODULLI O'QITISH TIZIMIDA TALABALAR NUTQIY QOBILIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI<br>Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi | 57 |